

IN EDUCATION THE TRADITIONS OF THE TEACHER-STUDENT ARE VERY VALUED

Sobirova Shahnoz Shavkiddinovna
Independent Researcher
A. Avloni National Institute of Pedagogical Skills

Abstract

This article examines the importance of the teacher-student tradition, its role in improving the quality of education, the role of the teacher in mastering the secrets of science, the relationship between teacher and student, as well as the educational significance of national sentiments, highlighted in this article.

Keywords: Teacher, student, quality of education, national value, tradition, relationships and tasks of teacher and student, education.

TA'LIMDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANASI BUYUK QADRIYAT

Sobirova Shahnoz Shavqiddinovna ,
A.Avloniy nomidagi pedagoglarni mahorat milliy instituti mustaqil izlanuvchisi
tel: +998944841221

Annotatsiya:

ushbu maqolada ustoz-shogird an'anasining ahamiyati, ta'lim sifat samaradorligini oshirishdagi o'rni, ilm-fan sir-asrorlarini egallashda ustozning o'rni, ustoz va shogirdlik rishtalari hamda milliy qadriyatlarni ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ustoz, shogird, ta'lim sifat samaradorligi, milliy qadriyat, an'ana, ustoz va shogird rishtalari va vazifalari, ta'lim-tarbiya.

В ОБРАЗОВАНИИ ОЧЕНЬ ЦЕНЯТСЯ ТРАДИЦИИ ПЕДАГОГА-УЧЕНИКА

Собирова Шахноз Шавкиддиновна,
независимый исследователь Национального
института педагогических навыков имени А. Авлони

Аннотация:

В данной статье рассматривается значение традиции учитель-ученик, ее роль в повышении качества образования, роль учителя в овладении тайнами науки, взаимоотношения учителя и ученика, а также воспитательное значение национальных ценностей, выделены в этой статье.

Ключевые слова: учитель, ученик, качество образования, национальная ценность, традиция, взаимоотношения и задачи учителя и ученика, образование.

Mamlakatimiz tashlayotgan har bir qadam, amalga oshirilayotgan har bir islohotlar zamirida barkamol avlod orzusi mujassam. O'zbekiston yoshlarining shijoati, aqlu zakovati, jismoniy va ma'naviy kamoloti, harakat va intilishlari ezgu maqsadlarining bosh omilidir. Shunday ekan, O'zbekistonni yanada obod, xalqimizni baxtli-sodatli qilishdek muqaddas va zalvori keng vazifalarni bajaradigan barkamol avlodni shakllantirish davr talabidir. Bu borada esa bizga mutafakkirlardan qolgan ma'naviy meros katta yordam beradi. Ularning ma'naviy merosida komil inson g'oyasi, barkamol avlod tarbiyasi, jamiyatda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish muammosi alohida o'rin tutadi.

Bu borada qadimiy manba hisoblangan «Avesto» asari, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Abulqosim Zamahshariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlarimizning ma'naviy-axloqiy ta'limotlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, yoshlarni o'qitish, ularga ta'lim-tarbiya berish, kelajak uchun munosib kadrlar qilib tarbiyalash hamma vaqt ham har bir davlatning eng birinchi navbatdagi ishlaridan biri bo'lib kelgan. Xuddi shuningdek, bizning mamlakatimizda ham bunday ishlar davlatimiz rahbarlarining doimiy ravishda diqqat markazida turibdi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Buyuk mutafakkir alloma Abduraxmon Jomiy o'z davrida, inson hayotining ma'nosini uning insonlarga, shogirdiga qilgan yaxshiligi bilan belgilaydi. Unga ko'ra, hayotda har bir inson odamlar baxtini deb, ularning tashvishi bilan yashab, ayniqsa ziyoli qatlam o'zining shogirdiga ota-onasidek ezgulikka yo'naltira oladigan yaxshilik qila bilishi kerak deb, ta'kidlab o'tgan.

Ziyoli bo'lish esa g'oyat og'ir, ammo ziyoli kishi ko'pchilik anglab yetmagan, idrok etolmagan, hatto ko'pchilik bilmagan narsalarni biladi, u bilganini boshqalarga o'rgatadi va uning butun hatti-harakati ezgulikka qaratiladi. Aynan ta'lim sifatini, uning samaradorligini, ayniqsa, bugungi kundagi ta'limning yangi turini joriy etishda ham "Ustoz-shogird" tizimi yanada mustahkamlanadi. Boisi, ta'lim tizimi, ilmiy faoliyat bosqichlari resurslar bozoriga ta'sir ko'rsatadi. Chunki ishchi kuchi sifati, malakasi, undagi bilim darajasi taraqqiyotga samara beradi. Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan inqirozlarga chora sifatida ta'sir ko'rsatadi. Har qanday davlatning nufuzi birinchi navbatda, yetishtirgan kadrlari salohiyatiga ko'ra belgilanadi.

Fikrimizning isboti o'laroq, davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri inson kapitali hisoblanadi va milliy boylikni yaratishda uning hissasi 75 foizdan ortiq. Shuni e'tiborga olgan holda davlatimiz rahbari ta'limga, ta'limdagi "Ustoz-shogird" tizimini mustahkamlashga juda katta e'tibor bermoqdalar. Aynan, "Ustoz-shogird" tizimi yoshlarda kasbiy mahoratni tarbiyalash, ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirish, o'z ustida izlanishi, bir so'z bilan aytganda har tomonlama yetuk malakali kadrlarni shakllantirishda o'ziga xos tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mavjudligi bilan ahamiyatlidir. Oqibatda esa bu jarayon ilm-fan taraqqiyotini belgilab beradi.

Xalqimizda shunday bir hikmat borki, "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar". Bu ibratomuz hikmatda milliy va xalqona qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va tarbiya xislatlari singan bo'lib asrlar osha ahamiyatini va qadr-qimmatini yo'qotmay kelmoqda. Har davrda ham Ustoz-shogirdning tarbiya tayanchi, hunarga, kasbga va ilmga yo'naltiruvchi, bilim olishga o'rgatuvchi, tafakkur va dunyoqarashini shakllantiruvchi inson bo'lgan. Eng asosiysi Ustozda hasad bo'lmaydi.

Ustoz-shogird qadr-qimmatini, bir-biriga bo'lgan hurmatini bilmoq uchun Amir Temur podshohligi davrida ikkita zo'r olimni sinamoqchi bo'libdi. Ularni shikorga (ovga) taklif etibdi. Otda uchchalalari ketayotganda Abu Said Barakaning oti oldinroq ketib qolibdi. O'rni keldi, debdi-da Amir Temur

allomaga qarab, Abu Said Barakani juda zo'r olim, taqvo, avliyo deysizlar. Men podshoh bo'lsam, siz yetuk ustoz alloma bo'lsangiz, u bizni mensimasdan oldinga o'tib ketib qoldi-ku, debdi. Alloma –Shohim bu insonga Alloh shunday ilm berganki, osmonga uchib ketmayaptiyam. Bu zotning o'tirgan oti bu insonning ulug'ligidan osmonga uchay deb ildam ketib qolayapti. Abu Said Baraka bilan hamzamon bo'lganligimizdan allohga shukur qilaylik, - debdi. Otni bir qamchilab, Abu Said Barakaga yetib olgan Amir Temur endi u kishiga so'z boshlabdi: —Bu allomani olim, avliyo deysiz, bizni mensimasdan orqada bemalol kelayapti. Bu qanaqa odam o'zi, - debdi.

Abu Said Baraka aytgan ekanlar: —Amirim, bu insonning ilmi shu darajadagi, haliyam uni yer, zamin ko'tarib turibdi. Bu zot mingan ot bu odamning ilmiyu taqvosini ko'tarolmasdan asta-sekin kelyapti-da. Bu ustoz bilan hamzamon bo'lganimizdan allohga hamdu sano aytaylik, -degan ekan. Bu rivoyatda haqiqiy inson, haqiqiy olim, haqiqiy Ustoz, haqiqiy shogird timsoli berilgan. Mening nazarimda, bugungi davrda ham haqiqiy insonlar "Ustoz-shogird" an'alarini davom ettirmoqda. Fan, ta'lim, ilm fidoyilari iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi muammolarni ilmiy tadqiqot ishlarida aynan mazkur tizim orqali bartaraf etmoqdalar.

Abdulla Avloniy "Har bir millatning saodati, davlatning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir"-deb ta'kidlagan. Ta'lim va tarbiya oilada ota-ona va ustoz bilan birgalikda berilishi maqsadga muvofiqdir. Ustozning mashaqqatli mehnatini hech narsa bilan solishtirib bo'lmaydi. O'rganamiz, izlanamiz fikrlar va mulohazalarda ustozga murojaat qilib to'g'ri yo'lni ko'ramiz.

Xalq orasida "Ustozdan o'tmagan shogird shogir emas", maqolining yuzaga kelishi ham bejizga emas. Negaki, ustoz o'zi nimaiki o'rgangan bo'lsa uni shogirdiga o'rgatishga harakat qiladi. Qadimdan oq shakllanib kelgan ushbu an'ana bugunga kelib o'z takomiliga yetdi. Sharq asotirlarida yozilishicha, bir kuni Aleksandr Makedonskiydan so'raydilar: Nima sababdan ustozing Arastuni otang Sulton Faylaqusdan ham a'lo ko'rsasan? Aleksandr Makedonskiy shunday javob qaytardi: Otam mening jismimni tarbiyalab, osmondan yerga olib tushdi. Ustozim Arastu esa mening ruhimni tarbiyalab, osmon qadar yuksaltirdi. Ushbu hikoyatda ustozning naqadar buyuk zot ekaniga yana bir karra ishonch hosil qilish mumkin.

Ustoz so'zining lug'aviy ma'nosi o'zbek tilining izohli lug'atida yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, murabbiy, o'rgatuvchi, o'qituvchi deb anglatishi yozilgan. Demak, ustoz so'zi juda muqaddas bo'lib, ustozlar shu nomga loyiq bo'la olishi kerak. Shogirdlarning kasbiy mahoratini oshirishda ustozlarning o'rni beqiyosdir. Shogirdning o'z kasbiga bo'lgan qiziqishini oshishiga, zamonaviy darslarni to'g'ri tashkil etishida, o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'ya olishda, ota-onalar bilan ishlashda, tadbirlarni tashkil etishda ustozning mashaqqatli va sharaflil mehnati lozim bo'ladi. Shunday ekan, ustozdan fidoyilik talab qilinadi. Ustoz o'qituvchi shogirdi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi, ish rejasi, dars ishlanmalari bilan tanish bo'lishi lozim. Shogirdining darslarini erinmasdan kuzatib, ilmiy va uslubiy yordamini ayamasi kerak. Shogirdlari uchun tashkil etayotgan namunali darslarida ustozlar o'z darslarini innavatsion texnologiyalar bilan boyitishi ham talab qilinadi. Quyida ustozlar uchun zamonaviy darslarda talab qilinayotgan innavatsion texnologiyalardan biri bo'lgan.

Shuningdek, ustoz o'qituvchi faoliyat ko'rsatayotgan maktabda fan bo'yicha o'quv xonasining ya'ni, Ustoz ustaxonasining samarali ishlashini tashkil etish, uning talab darajasida jihozlanishi, kerakli ko'rgazma qurollar, texnika vositalari, laboratoriya jihozlari bilan ta'munlanishi ham ustozlik va shogirdlik talablarini bajarishda katta yordam berib, shogirdlar uchun uslubiy yordam bo'ladi.

Xalqimizda bir ibratli maqol bor “Ustozdan o‘tmagan shogird-shogird emas. Bugungi “Ustoz shogird” maktablarida faoliyat olib borayotgan shogirdlar kelajakda o‘z ustozlari kabi bilimli va mahoratli ustozlar bo‘lib yetishsagina, biz bugungi kun ustozlari bilan faxrlana olamiz va ta‘lim oldidagi sharaflı burchimizni bajargan bo‘lamiz.

Xulosa

“Ustoz-shogird” an‘analari kishilik jamiyatining ma‘naviy salohiyatini izchil va bardavom rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Inson bor ekan hamisha tushunishga, anglashga harakat qiladi. Bunda albatta ustozlarning ko‘magi va yo‘l-yo‘riqlari asqotadi. Badiiy yoki ilmiy ijoddagi bu tizim o‘rgatuvchi va o‘rganuvchiga ulkan ma‘suliyat yuklaydi. Zero o‘sha tizimni rivojlanishi va takomillashuvi uchun vijdon amri bilan yondashib bajarilgan ishlargina taraqqiyot sari yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1 Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent.: O‘zbekiston, 2018.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 5 jildli. – Toshkent. —O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
3. Amir Temur. Temur tuzuklari. – T: Navro‘z, 1996.
4. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta‘lim maktabida o‘qitish metodlari. – T.: O‘qituvchi, 1990
5. Karimov I.A. Asarlar. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. Toshkent: 1996.
6. Интернет тармоғи.